




QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR - IYUN OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-iyun oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyun oyilarida viloyat korxonalari tomonidan 10 152,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyun oyilariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 72,8 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar - iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 838,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 71,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- iyun oylari	2022- yil yanvar- iyun oylari	Farqi +/-
Tabiiy qumlar, ming t.	24,4	8,8	-15,6
Neft, ming t.	26,1	10,2	-15,9



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- iyun oylari	2022- yil yanvar-iyun oylari	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1445,1	324,7	-1120,4
Gaz kondensati, ming t.	151,4	58,8	-92,6


Yanvar- iyun oylari yirik korxonalar bo'yicha

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar- iyun oylari

FHI,% da



2022- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 394,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 104,5 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar- iyun oylari


64,6 %

2022- yil yanvar- iyun oylari

72,8 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2021- yilning yanvar- iyun oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,2 % (22,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,4 % (2,0 %) va quyi texnologiyalisi – 49,0 % (44,7 %) ni tashkil etdi.


■ 2021- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 14,2 % (2021- yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 18,1 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,1 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 139,2 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 21,0 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,4 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 3,2 m), mebel ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,8 %), ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Tabiiy qumlar




Gaz kondensati




Tabiiy gaz



Neft



Propan, Butan



Chaqiq tosh




* Yanvar- iyun oylarida yirik korxonalar bo‘yicha

Yumshoq bug'doy uni




Aroq




Uzum vinosi




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2022- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 76,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 70,4 %) ni, 26,3 ming tonna kalava ip (157,0 %) ni, 31,4 ming tonna paxta tolasi (61,5 %) ni hamda 1 123,2 ming litr aroq mahsulotlari (111,0 %) ni, tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- iyun oylari	2022- yil yanvar- iyun oylari	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	224,8	76,7	-148,1
Paxta tolasi, ming t.	99,4	31,4	- 68,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	21,2	2,7	-18,5


Yanvar- iyun oylarida yirik korxonalar bo 'yicha

Metallurgiya sanoati

2021- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 93,5 % ni tashkil etgan, 2022- yilning yanvar- iyun oylariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 %, fizik hajm indeksi esa, 18,1 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 8,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 120,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 122,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 170,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 81,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 114,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 440,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 88,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 141,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 61,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 131,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 139,2 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 159,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 80,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 %, fizik hajm indeksi 104,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 235,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-iyun oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,0 % ni, fizik hajm indeksi 116,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 134,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-iyun oylarida mebel ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 93,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 108,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 40,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-iyun oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 3,6 m tashkil etgan,.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 3,2 m ga oshib, ishlab chiqarish hajmi 29,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-iyun oylarida yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 5,6 m. ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 11,6 m. ga oshib va ishlab chiqarish hajmi 13,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-iyun oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 140,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 78,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 27,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish


2021- yil yanvar-iyun oylarida yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 134,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 140,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 862,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,3 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar - iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 88,1 % ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar – iyun	2022- yil yanvar – iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	163,2	4 955,7	4792,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	3 214,9	1 598,1	-1616,8

yanvar - iyun oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Yanvar – iyun oylari

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar - iyun	2022- yil yanvar – iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	11 359,7	6 839,7	- 4 520
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	57 474,8	27 358,9	- 30 115,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 118,4 % ni hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar 111,5 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 089,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-iyun oylari

59,9%

2022- yil
yanvar-iyun oylari

63,8%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-iyun oylari

40,1%



2022- yil
yanvar-iyun oylari

36,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,7 % (2021- yil yanvar–iyun oylarida 2,2 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 23,5 % ni va Koson tumani 10,2 % ni, Yakkabog' tumani 7,9 % ni Shahrizabz shahri 7,5 % ni, Kitob tumani 7,0 % ni hamda Chiroqchi tuman 6,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida tumanlarda o'sish sur'ati (105,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Koson tumanida (127,1 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 23,5 % ni shuningdek, Koson tumani 10,2 % ni, Yakkabog' tumani 7,9 % ni, Shahrisabz shahri 7,5 % ni va Kitob tumani 7,0 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shaharga to'g'ri kelib 16,7 % ni, Kitob tumaniga 11,3 %, Koson tumaniga 11,3 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 9,0 % ni tashkil etdi.

785,4 mlrd. so'm


2020- yil yanvar – iyun

1 866,8 mlrd. so'm



2021- yil yanvar – iyun

755,6 mlrd. so'm

2022- yil yanvar - iyun



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 29,0 % ni, shuningdek, Koson tumani 8,9 % ni, Shahrisabz shaharga esa 8,0 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Qashqadaryo viloyati tuman, shahar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nishon tumaniga to‘g‘ri kelib, 17,5 % ni, shuningdek, G‘uzor tuman 17,2 % ni, Qarshi shahar esa 14,5 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyat

2020- yil

6 245,5 mlrd. so‘m

2021- yil

18 771,9 mlrd. so‘m

2022- yil

10 152,6 mlrd. so‘m



2020- yil



94,0 %

2021- yil

115,4 %


2022- yil

105,6 %



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (11 110,4 ming so'm), G'uzor tumanida (8 176,2 ming so'm), Qarshi shahar (5 178,2 ming so'm), Kasbi tumanida (4 809,2 ming so'm), Dehqonobod tumanida (3 783,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 266,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

1 897,9 ming so'm

2021- yil

5 567,2 ming so'm

2022- yil

2 995,6 ming so'm



2020- yil

92,2 %

2021- yil


103,1 %

2022- yil

103,4 %

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 424,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,9 % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

1 974,2 mlrd. soʻm

2021- yil

5 124,1 mlrd. soʻm

2022- yil

2 424,4 mlrd. soʻm



2020- yil

31,6 %

2021- yil

27,3 %



2022- yil

23,9 %

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 610,3 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 1 744,8 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 1 092,4 ming so'mni, Mirishkor tumanida – 815,9 ming so'mni va Nishon tumanida – 664,3 ming so'mni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati




o'sish sur'ati

ming. so'm

Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 5228 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 942 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,3 % i) Qarshi shahriga, 565 tasi (10,8 %) Kitob tumaniga, 456 tasi (8,7 %) Yakkabog' tumaniga, 368 tasi (8,7 %) Qarshi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturning amalga oshirillishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 99 ta loyiha bo'yicha 209,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,5 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 99 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 145,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining pasayishi kuzatildi.